“SPORTS.uz” platformasi kuzatuvchilariga bag‘ishlangan “Champion” aksiyasi QOIDALARI

(ommaviy oferta)

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur qoidalar “Render Systems” mas’uliyati cheklangan jamiyati muassisligidagi **“SPORTS.uz”** platformasi (keyingi o’rinlarda – Tashkilotchilar) kuzatuvchilari uchun o‘tkazayotgan **“Champion”** aksiyasining (keyingi o’rinlarda – Aksiya) tartib-taomili va shartlarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Qoidalar Aksiyaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga oladi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi hamda mazkur Aksiyada qatnashuvchilar (keyingi matnda – Ishtirokchi) uchun majburiy hisoblanadi.

1.3. Ishtirokchining ushbu Qoidalarning 3.1-bandida ko‘rsatilgan barcha shartlarni bir vaqtning o‘zida bajarishi Aksiyada ishtirok etishga rozilik va ushbu Qoidalarda belgilangan barcha shartlarni so‘zsiz qabul qilishini bildiradi.

1.4. Ushbu Aksiya “SPORTS.uz” platformasi kuzatuvchilarining e’tiborini Tashkilotchilarning qo‘shimcha xizmatlariga jalb qilish, platforma ommabopligini oshirish, foydalanuvchilar platformani kuzatishi orqali reytingini oshirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi tadbir hisoblanadi.

1.5. Aksiya tashkilotchisi “Render Systems” MChJ muassisligidagi “SPORTS.uz” sayti. Yuridik manzili: Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Rahima Aliyeva ko‘chasi 6a-uy.

1.6. Texnik hamkor – “Level Up Solutions” MChJ. Yuridik manzili: 100076, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Parkent-2 ko‘chasi, 21-uy. (STIR 302796163).

1.7. Aksiya g‘olibi O‘zbekiston Respublikasining 18 (o‘n sakkiz) yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda muomalaga layoqatli deb topilgan jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin, Aksiya Tashkilotchisi xodimlari (Tashkilotchi bilan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan shaxslar) bundan mustasno.

1.8. Ushbu Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan o‘yin emas hamda Aksiya ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy tavakkalchiliklarga ega emaslar. Aksiyaning mukofot jamg‘armasi faqat Tashkilotchi mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.

1.9. Aksiya muddati: boshlanish sanasi 2026-yil 14-sentabr (soat 00:00 dan). Tugash sanasi 2026-yil 14-noyabr (soat 23:59 gacha).

2. Aksiyaning mukofot jamg‘armasi

2.1. Aksiyaning mukofot jamg‘armasi Aksiya tashkilotchisi mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi va faqat Aksiya g‘oliblariga Sovrinlarni topshirish uchun foydalaniladi.

2.2. Umumiy mukofot jamg‘armasi quyidagi sovrinlardan tashkil topgan:

Sovrinlar nomi	Soni
Aksiya davomida o‘ynaladigan sovg‘alar	
Kunlik sovg‘a (100 000,0 so‘m pul mukofoti)	108 ta
Haftalik sovg‘a (200 000,0 so‘m, 300 000,0 so‘m, 500 000,0 so‘m pul mukofotlari)	9 ta
Aksiya yakunida o‘ynaladigan sovg‘alar	
Final (2 000 000,0 so‘m, 3 000 000,0 so‘m, 5 000 000,0 so‘m pul mukofotlari)	1 ta

2.3. Soliq to‘lovchi – jismoniy shaxsning daromadi hisoblangan yutuqni topshirish bilan bog‘liq barcha soliqlar Tashkilotchi tomonidan yutuq summasidan ushlab qolinadi va yutuq egasining nomidan budjetga to‘lanadi. G’olibga yutuq summasi chegirilgan holda topshiriladi.

2.4. Tashkilotchi Sovrinlar ro‘yxatini o‘zgartirish yoki kengaytirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

3. Aksiyada qatnashish shartlari

3.1. Aksiya ishtirokchisi bo‘lishni istagan har bir shaxs quyidagi barcha shartlarni bajarishi va ularga rioya qilishi kerak:

3.1.1. Qoidalarning 1.9-bandida ko‘rsatilgan muddatda Tashkilotchining Telegram messenjeridagi (Telegram Messenger, Inc.) @promo_bank_bot telegram boti orqali ro‘yxatdan o‘tib, “SPORTS.uz” telegram kanalida (@sports_uz) har kuni dushanbadan shanbagacha soat 19:00 dan 21:00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida post ko’rinishida tashlanadigan maxsus belgilarni ushbu botga kiritish.

Maxsus belgi (keyingi matnda – sirli raqam)lar raqamlardan iborat, 4 xonali son ko‘rinishida bo‘ladi *(Misol uchun: 7890)*.

3.1.2. Sirli raqam Sports.uz telegram kanalida post sifatida kanalga tashlanadi. Ishtirokchi @promo_bank_bot botidagi maxsus Aksiyalar oynasiga kirib, “Champion” aksiyasi nomi ostidagi oyna orqali sirli raqamni kiritib,
ball to‘playdi. To’g’ri kiritilgan har bir sirli raqam uchun 5 (besh) balldan taqdim etiladi.

Sirli raqamni telegram botga kiritish uchun bir daqiqa vaqt beriladi. Sirli raqamning yaroqlilik vaqti bir daqiqa, bir daqiqadan so‘ng kiritilgan taqdirda telegram bot uni qabul qilmaydi.

3.1.3. Ishtirokchilar telegram botdagi “Qo’shimcha ball olish” tugmasini bosish orqali chiqqan havolani o‘z tanish(do‘st)lariga yuborib, hamda shu do‘stlari yuborilgan havola orqali botga kirib ro‘yxatdan o‘tsa – taklif qilgan ishtirokchiga umumiy 3 ball taqdim etiladi *(ro‘yxatdan o‘tganligi uchun – 3 ball)*.

Ishtirokchining to‘plagan ballari qancha ko‘p bo‘lsa, unda qimmatroq bo‘lgan sovg‘ani yutib olish imkoniyati yanada ko‘proq bo‘ladi.

4. Aksiya g‘oliblarini aniqlash tartibi

4.1. Agar Qoidalarning 3-bo‘limi shartlari bajarilgan bo‘lsa ishtirokchilarda quyidagilarni yutib olish imkoniyati mavjud bo‘ladi:

- 50 va undan yuqori ballni to‘plagan ishtirokchilar **SILVER** darajasiga ko’tariladilar va ular …. yutib olish imkoniyatini qo‘lga kiritishadi;
- 100 va undan yuqori ballni to‘plagan ishtirokchilar **GOLD** darajasiga ko’tariladilar va ular …. yutib olish imkoniyatini qo‘lga kiritishadi;
- 300 va undan yuqori ballni to‘plagan ishtirokchilar **CHAMPION** darajasiga ko’tariladilar va ular …. yutib olish imkoniyatini qo‘lga kiritishadi.

Bundan tashqari, har kuni sirli raqamlar sports.uz telegram kanalida post sifatida tashlandan keyin shu telegram kanalda 2 nafar g‘olib e’lon qilinadi.

1-g‘olib – 19:00 dan 21:00 gacha vaqt oralig‘ida sports.uz (@sports_uz) telegram kanalida chiqqan sirli raqamlarni kiritganlar orasidan shu vaqt o‘zida omadli ishtirokchi aniqlanadi va 100 000,0 so‘mni qo‘lga kiritadi.

2-g‘olib – telegram botda “Champion” aksiyasi doirasida kunlik reytingda TOP-100 talikka kirgan ishtirokchilar orasidan bir nafariga 100 000,0 so‘m pul mukofoti beriladi. Kunlik reyting har kuni 21:30dan 21:30gacha bo’lgan vaqt oralig’ida hisoblanadi. Har kuni 21:30da yangi kunlik reyting boshlanadi.

4.2. Ishtirokchi kiritgan sirli raqamning umumiy miqdori va Qoidalarning 4.1-bandida belgilangan miqdorda to‘plangan ballar haqidagi ma’lumot @promo_bank_bot telegram boti orqali olinadi.

4.3. Ishtirokchilar @promo_bank_bot boti orqali ro‘yxatdan o‘tgan telefon raqamlari orasidan randomayzer yordamida (kompyuterda Random dasturi orqali) g‘olib tasodifiy tanlab olinadi.

4.4. Ishtirokchi o‘z telefon raqamining sovrinlar o‘yinidagi ishtirokini kuzatishi mumkin. Har bir o‘yindan keyingi kuni “SPORTS.uz” saytida hamda Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalaridan birida yutuq o‘ynaladigan efir namoyish etiladi. Telefon raqami o‘yinda yutgan Ishtirokchi o‘yin g‘olibi hisoblanadi. Har bir o‘yinda Ishtirokchi faqatgina bitta yutuq g‘olibi bo‘lishi mumkin.

4.5. O‘yin vaqtida mavjud bo‘lgan barcha Ishtirokchining telefon raqamlari har bir o‘yinda ishtirok etadi, oldingi o‘yinlardan birining g‘olib bo‘lgan telefon raqami bundan mustasno. "Champion" aksiyasining g'oliblarni aniqlash qoidalariga binoan, kunlik 100 000 so‘m pul mukofotini bir marotaba qo‘lga kiritgan ishtirokchi kelgusida ushbu pul mukofoti bo‘yicha takror g‘olib bo'la olmaydi.

4.6. O‘yin g‘oliblari (keyingi o‘rinlarda “G‘olib” deb yuritiladi) Sports.uz telegram kanalida va PromoBank telegram kanalida e’lon qilinadi. Shuningdek, tashkilotchi g‘olibga qo‘ng‘iroq qiladi va yutuq haqida xabar beradi, tashkilotchilar g‘oliblarning ismlarini ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasiga joylashtiradi.

Tashkilotchi g‘olibga +998-98-121-12-28 raqami orqali qo‘ng‘iroq qilib, g‘olib bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi va telefon orqali muloqotni jonli efirda namoyish qiladi.

4.7. Tashkilotchi sovrinlarni o‘yin o‘tkazilgan kundan boshlab uch oy ichida topshiradi. Sovrinni olish uchun G‘olib Tashkilotchining manziliga shaxsan kelishi va quyidagilarni taqdim etishi kerak(yoki mas’ul xodimga online taqdim etishi lozim):

- shaxsini tasdiqlovchi amaldagi hujjat;

- @promo_bank_bot botida ro‘yxatdan o‘tgan telefon raqami G‘olibga tegishli ekanligini tasdiqlash.

4.8. Mazkur qoidalarning 4.6-bandiga asosan Tashkilotchi tomonidan jonli efir paytida g‘olibga qo‘ng‘iroq qilganda javob bermasa (yoki telefon raqamiga bog‘lanish imkoni bo‘lmasa) va u 24 soat mobaynida qayta aloqaga chiqmagan taqdirda sovrin topshirilmaydi va sovrin keyingi o‘yinga qo‘yiladi. Shuningdek, 4.7-band shartlariga rioya qilmagan taqdirda Tashkilotchi ushbu G‘olibning sovrinini bekor qilish huquqiga ega.

5. Boshqa shartlar

5.1. Tashkilotchi istalgan vaqtda Ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmasdan ushbu Qoidalarga so‘zsiz o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritish yoki tegishli ma’lumotlarni veb-sayt yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashtirish orqali Aksiyani tugatish/to‘xtatib turish/bekor qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5.2. Aksiyada ishtirok etish bilan Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan ijtimoiy sahifalarida joylashtirilgan Qoidalarni to‘liq va so‘zsiz qabul qilishini bildiradi, shuningdek, Ishtirokchi bilan turli xil aloqa vositalaridan foydalangan holda bevosita aloqa o‘rnatish, shu jumladan (cheklovsiz) pochta jo‘natmalari, Ishtirokchining elektron pochta manziliga, mobil telefoniga (SMS-xabarnoma) tegishli ma’lumotlarni, push-bildirishnomalarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasi mazmunining reklama tushunchasiga mos keladigan ma’lumotlarni yuborish orqali Tashkilotchi tomonidan o‘tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar hamda o‘yinlarda ishtirok etish, shu jumladan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazish, marketing va/yoki statistik va/yoki boshqa tadqiqotlar o‘tkazish, tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni targ‘ib qilish maqsadida, shu bilan birga Ishtirokchini yangi xizmatlar, maxsus takliflar va reklama aksiyalar, Tashkilotchi tomonidan taqdim etilayotgan chegirmalar va bonuslar tizimlari, Tashkilotchi va uchinchi shaxslar tomonidan birgalikda taqdim etiladigan xizmatlari, mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) haqida ma’lumot berish maqsadida, shu jumladan Tashkilotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, xususan, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish maqsadida Ishtirokchining Ilovada ro‘yxatdan o‘tish vaqtida taqdim etgan shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligini bildiradi.

5.3. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi o‘z xohishi bilan, o‘z manfaatlarini ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq Tashkilotchiga o‘z ma’lumotlarini (O‘zbekiston Respublikasi shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligini va ularni qayta ishlash jarayonida shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risidagi qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda) ular tomonidan qayta ishlashga (to‘plash, qayd etish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, tasdiqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), foydalanish, tarqatish, taqdim etish, tashkilotchi va uning kontragentlari tomonidan Ishtirokchining shaxsiy ma’lumotlarini uzatish (shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi hududiga o‘tkazish), anonimlashtirish, blokirovka qilish va yo‘q qilish, shu jumladan avtomatlashtirish va avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, boshqa dasturiy vositalardan foydalanish, shuningdek ishtirokchining shaxsiy ma’lumotlarini qo‘lda, avtomatlashtirilgan va aralash,

ham tashkilotchi va uning kontragentlarining ichki tarmog‘i, shuningdek Internet orqali, shuningdek ularsiz qayta ishlash. Amaldagi qayta ishlash usullariga quyidagilar, shu jumladan (cheklovlarsiz), ma’lumotlar bazasini zarur mezonlar bo‘yicha segmentatsiyalash kiradi.

5.4. Ushbu rozilik Ishtirokchi tomonidan Ishtirokchiga tegishli har qanday ma’lumotlarga, shu jumladan quyidagi maqsadlarga erishish uchun Ishtirokchining zarur yoki kerakli bo‘lgan shaxsiy ma’lumotlariga nisbatan har qanday harakatlarni amalga oshirish uchun beriladi: familiyasi, ismi, otasining ismi; jinsi; tug‘ilgan yili, oyi, sanasi (va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda-shaxsni tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari (pasport raqami, berilgan sana, berilgan organ nomi, shuningdek ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi ma’lumotlar), soliq to‘lovchining shaxsiy raqami, mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va bank karta raqami hamda Sovrinni olish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar.

5.5. Ishtirokchining shaxsga doir ma’lumotlarini ushbu qoidalarga muvofiq qayta ishlashga jalb qilingan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi Tashkilotchiga taqdim etiladi va qo‘shimcha muvofiqlashtirishni talab qilmaydi. Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

5.6. Aksiyada ishtirok etish orqali aksiya g‘olibi deb topilgan ishtirokchi, shuningdek, o‘z ismi, familiyasi, otasining ismi va o‘z rasmlarini (fotosuratlar va videolarini) Tashkilotchining quyidagi rasmiy internet va ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirishga rozilik beradi:

https://sports.uz
https://t.me/sports_uz
https://sportsuz.media
https://facebook.com/sportsuz
https://youtube.com/sportsuzchannel

Shuningdek, bosma nashrlarda, radio va televizion dasturlarda, Internet ommaviy axborot vositalarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan (cheklovlarsiz) Instagram, Vkontakte, Facebook, Telegram tarmoqlarida ham.

5.7. Ushbu Qoidalar buzilgan taqdirda, Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisini Aksiyada ishtirok etishdan so‘zsiz chetlashtirishga haqli. Shu bilan birga, Tashkilotchi ko‘rsatilgan Ishtirokchiga (-larga) nisbatan o‘z harakatlariga izoh bermaslik huquqiga ega.

5.8. Aksiya Ishtirokchisi o‘zi haqida noto‘g‘ri va/yoki ishonchsiz ma’lumotlarni ko‘rsatishi sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy oqibatlar xavfini to‘liq o‘z zimmasiga oladi.

5.9. Ushbu rag‘batlantiruvchi tadbirga muvofiq Aksiya g‘olibini aniqlash natijasi yakuniy sanaladi va unga e’tiroz bildirish mumkin emas.

5.10. Aksiya ishtirokchisi istalgan vaqtda Aksiya Tashkilotchisiga murojaat qilib, Aksiyada ishtirok etishni rad etishga haqli.

5.11. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisi yoki uchinchi shaxs tomonidan Aksiya yoki Sovrinni olish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha va har qanday chiqim va xarajatlarni qoplamaydi.

5.12. Tashkilotchi telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi nosozliklar, zararli dasturlarning xatti-harakatlari, shuningdek uchinchi shaxslarning dasturiy ta’minotga ruxsatsiz kirish va/yoki Tashkilotchining apparat kompleksini o‘chirishga qaratilgan insofsiz harakatlari tufayli majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi uchun javobgar emas.

5.13. Tashkilotchi, agar biron-bir sababga ko‘ra, kompyuter viruslari, nuqsonlar, manipulyasiyalar, ruxsatsiz aralashuvlar, qalbakilashtirishlar, texnik nosozliklar yoki Tashkilotchi tomonidan nazorat qilinmaydigan Aksiyaning bajarilishi, xavfsizligi, halolligi, yaxlitligiga ta’sir qiladigan har qanday sabablarga ko‘ra Aksiyalarni yoki uning biron bir qismini rejalashtirilganidek amalga oshirish mumkin bo‘lmasa, Aksiyani bir tomonlama to‘xtatish yoki to‘xtatib turish yoki uning alohida ishtirokchilarini chetlashtirish huquqiga ega.

5.14. Fuqarolar aksiya haqida dushanbadan jumagacha soat 10:00 dan 18:00 gacha ishlovchi axborot aloqa liniyasi: +998-78-147-78-89 telefon raqamiga qo‘ng‘iroq qilib ma’lumot olishlari mumkin.

5.15. Tashkilotchi istalgan vaqtda Ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmasdan, tegishli ma’lumotlarni veb-sayt, mobil ilova yoki Internetga joylashtirish orqali ushbu Qoidalarga o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalar kiritish hamda Aksiyani to‘xtatish/to‘xtatib turish/bekor qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.